

## **DINIY MATNLARDA OT SO‘Z TURKUMINING QO‘LLANILISHI (TEZIS)**

*Ermanova Gulzoda Raxmataliyevna* Namangan viloyati Pop tumani ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi gulzodaermonova3@gmail.com 94 276 71 83

### **Kirish**

So‘z turkumlari, ayniqsa, otlar tilda narsa-buyumlarni, hodisalarni, shaxslarni va tushunchalarni nomlashda asosiy vosita hisoblanadi. Otlar aniq va mavhum dunyo obyektlarini ifodalash bilan birga diniy matnlarda ma’naviy-axloqiy mazmunni ochishda, aqidaviy va ijtimoiy tushunchalarni yetkazishda asosiy sintaktik birlik sifatida qatnashadi. “Qur’oni karim” hamda hadislar tili Quraysh lahjasiga asoslangan arab tili bo‘lishiga qaramay, ular tarjimalarida ham otlar o‘z semantik mohiyatini saqlab qoladi. Diniy matnlarda otlarning qo‘llanilishi – nafaqat tilshunoslik, balki teolingvistika nuqtayi nazaridan ham tahlil etilishi lozim bo‘lgan muhim masaladir.

### **“Qur’oni karim”da otlarning qo‘llanilishi**

“Qur’oni karim”da otlar orqali Allohning nomlari (“Ar-Rahmon”, “Al-Hakim”, “Al-Alim”), diniy tushunchalar (taqvo, iman, kufr, zino), moddiy va ma’naviy dunyo tasviri (osmon, yer, quyosh, qalb, ilm) beriladi. Qur’on matnida otlar faqat nomlash vazifasini emas, balki ideologik va didaktik yuklamani ham bajargan. Masalan, "Innamal mu’minuna ixvatun" – "Mo‘minlar faqatgina birodardirlar" (Hujurot, 10). Bu yerda “Mo‘min va ixva” otlari musulmonlar o‘rtasidagi axloqiy rishtani ifodalab turibdi. Yoki: "Ilm Allohdan bo‘lgan nurdir" degan mazmundagi oyatlar ta’lim va ma’rifatning ilohiy asosga egaligini ko‘rsatadi. Otlar matnda ko‘pincha murakkab tushunchalarning asosiy asoslovchisi sifatida ishlatiladi. Masalan:

1. (Baqara-104) “Ey iymon keltirganlar!”Ro`ina” demanglar,”Unzurna” denglar va tinglanglar.Va kofirlarga alamli azob bo`lur”. Bu yerda mavhum ot so`z turkumi-iymon,kofir,azob so`zları qo`llanilyapti.
2. (Baqara-102)”Sulaymon podsholigida shaytonlar tilovat qilgan narsaga ergashdilar .Sulaymon kufr keltirgani yo`q.Lekin Shaytonlar odamlarga sehrni o`rgatib,kofir bo`ldilar”.Ot so`z turkumiga oid so`zlar-Sulaymon (shaxs oti),shayton,tilovat,kufr,kofir kabi mavhum otlar qo`llanilib diniy tushunchalarni ifodalab kelmoqda.
3. (A`rof-187) “Sendan qiyomat soati qachon sobit bo`lishi haqida so`radilar.Sen:”Ilmi faqat Robbim huzuridadir.Uni faqat o`ziga zohir qiladir”. Bu matnda “qiyomat,ilm,Robbim kabi islomiy tushunchalar berilgan.
4. (Niso-100) “Kim Allohning yo`lida hijrat qilsa,yer yuzida ko`pgina panohgohlar va kengchilik topadi.Kim uyidan Alloh va Rasulga hijrat qilib chiqsa-yu unga o`lim yetsa,albatta,uning ajri Alloh zimmasiga tushadi”. Bu matnda ot so`z turkumiga oid so`zlar-“Alloh,Hijrat,Rasul” kabi diniy tushunchalar ifodalangan.

### **Al-Jome' as-Sahih (Sahih al-Buxoriy)da otlarning qo`llanilishi**

Hadis matnlarida ham otlar diniy-amaliy faoliyatni anglatishda, axloqiy tamoyillarni tushuntirishda asosiy vositadir. Masalan, "niyat", "savob", "gunoh", "jannat", "jahannam", kabi otlar orqali islomiy e'tiqod va amal tushunchalari berilgan. Imom Buxoriy rivoyat qilgan mashhur hadisda: "Albatta, amallar niyatga bog`liqdir. Kimning hijrati Alloh va Rasuliga bo`lsa, u Alloh va Rasuliga hijrat qilgan bo`ladi; kimning hijrati dunyoviy manfaat yoki ayolga uylanish uchun bo`lsa, uning hijrati shunga bo`ladi" (Sahih al-Buxoriy, 1-hadis). Bu yerda “niyat, amal, hijrat, dunyo, manfaat, ayol” kabi otlar diniy va ijtimoiy qadriyatlar orasidagi bog`liqlikni namoyon etadi. Shuningdek, hadislar tilida otlarning ko`pligi, ular orqali shariat qonunlari, diniy amallar (masalan, “namoz, ro‘za, haj, zakot”) va

muomala madaniyati yoritiladi. Masalan:

1. (Ilm-u hikmatni orzu qilmoq) "Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: "Ikki narsadan o'zgasiga hasad qilmoq joiz ermas, biri – kishiga Alloh taolo halol mol-dunyo bersayu, uni Haq yo'lida sarflayotgan bo'lsa, ikkinchisi – kishiga Alloh taolo ilm-u hikmat ato etsayu, u shu tufayli oliv maqomga erishib, hukm surayotgan, odamlarga bilganini o'rgatayotgan bo'lsa", – deganlar". Ot so'z turkumiga oid so'zlar-Abdulloh ibn Mas'ud, Rasululloh sallallohu alayhi va sallam (shaxs otlari), Alloh taolo, mol-dunyo, ilm-u hikmat kabilar.

2. (Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning odamlarga malol kelmasin deb, muayyan kunlarni ilm va va'z aytish uchun belgilab qo'yganlari) "Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: "Osonlashtiringiz, qiyinlashtirmangiz! Xushxabar aytingiz, qiziqtiringiz, nafratlantirmangiz (o'zingizdan bezdirmangiz)!" – dedilar"." Bu matnda ot so'z turkumiga oid so'zlar- Anas ibn Molik roziyallohu anhu (shaxs oti) qo'llanilyapti

3. (Hayo iymondandir) "Rasululloh sallallohu alayhi vassalam birodariga iymondan o'git berayotgan ansorlardan birining yonidan o'ta turib, unga bunday dedilar: "Qoyavergil uni, hayo iymondandir!" Bunda ot so'z turkumi- Rasululloh sallallohu alayhi vassalam, iymon, ansorlar, hayo kabilar.

### **Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf asarlarida otlar**

4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Tafsiri Hilol", "Imon" va "Islom tarbiyati" kabi asarlarida ham otlar diniy-ma'naviy tushunchalarni ifodalashda keng qo'llaniladi.

Masalan: "taqvo", "e'tiqod", "jaholat", "salohiyat", "ummat", "haq" kabi otlar o'quvchiga diniy axloq va mas'uliyatni tushuntirishda xizmat qiladi.

### **Otlarning leksik-semantik tahlili**

Diniy matnlarda otlar aniq predmet yoki tushunchani bildiruvchi, majoziy, ma'naviy ma'nolarda ishlataladi. Masalan, "qalb" so'zi Qur'onda shunchaki biologik a'zo emas, balki e'tiqod va ma'naviyat markazi sifatida tushuniladi. Shuningdek, "ilm" so'zi faqat kitobiy bilim emas, balki Alloh tomonidan berilgan nur, ruhiy poklanish vositasi sifatida talqin etiladi. Hadislar matnida "taqvo" – Allohdan qo'rqish, "iman" – qalb bilan tasdiqlash, "nifoq" – munofiqlik kabi tushunchalar otlar vositasida beriladi. Bularning har biri diniy tushunchalarni tashkil qiladi va muayyan dinga oid axloqiy, e'tiqodiy mezonlarni aks ettiradi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, "Qur'oni karim" va hadis matnlarida ot so'z turkumi juda keng qamrovli va ma'naviy yuklama bilan qo'llanilgan. Otlar orqali diniy mafkura, axloqiy me'yorlar, shariat qonunlari, Allohning buyruqlari va bashariyatga oid haqiqatlar ifodalanadi. Bu jihatdan otlarning diniy matnlardagi semantik, grammatik va pragmatik tahlili zamonaviy tilshunoslik, ayniqsa, teolingvistika uchun dolzarb hisoblanadi. Ushbu tahlillar orqali nafaqat til tizimi, balki diniy tushunchalar va e'tiqodiy qadriyatlar til vositasida qanday ifodalanganini o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Qur'oni karim. O'zbekcha ma'nolar tarjimasi. – Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tarjimasi. – Toshkent: Hisol nashriyoti, 2017.
2. Imom al-Buxoriy. Al-Jome' as-Sahih (Sahih al-Buxoriy). – Toshkent: Movarounnahr, 2006.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hisol. 3 jildlik. – Toshkent: Hisol nashriyoti, 2013.

4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Imon. – Toshkent: Hilol nashriyoti, 2000.
5. A.Abdullayev. O'zbek tilining grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2005.
6. G‘.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
7. Qurbonov A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2002.